

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY MATBU'AT MARKAZI

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 13-19 - noyabr N:46 (66587)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» hukumatga qarashli
bo'lmagan xalqaro xayriya
jam'armasi.

JIZZAX BOLASI O'Z GAZETASINI O'QIYDIMI?

Albatta o'qiydi, degan javobni olaman-u, lekin olti yuzga yaqin maktabi bor, kollej-u litseylari bisyor viloyatda nega shu kungacha atigi 1077 nafar bola «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldi, deya o'yga tolaman.

Axir obuna mavsumi uchun eng dolzarb - noyabr oyida ahvol shu bo'lsa, ertaga lab tishlab qolmaymizmi?

Bog'i bor, tog'i bor, cho'li bor, ko'li bor go'zal Jizzaxda shoir Ne'mat Hayrat katta va'dalar beradi: *-Aslo unday bo'lmaydi, opa! O'tgan yildagidan o'n barobar ko'p bo'ladi, axir har o'n o'quvchining bittasi «Tong yulduzi»ni olishi kerak, deyapsiz-ku! Shunday hisoblasak, albatta o'tgan yildagidan o'n karra ko'p bo'ladi-da. Odamlarimiz bag'ri keng, bolaparvar. Jizzaximizda ma'naviyatli xalq yashaydi! Men bu gaplarni viloyat hokimligi Axborot matbuot markazi rahbari sifatida Sizga ishonch bilan aytyapman.*

*-Mudroq o'tgan kunlarga, intiqo-
mim bor mening,
Yana necha tunlarga intihorim
bor mening,*

-deb bejiz yozmagansiz, Ne'matjon! Gazetamizni o'qib ulg'aygan bola yurt dardini, rahbarlar niyatini his qilib turadi, kitobga oshnolik qiladi. Demak, hozirgi sa'y-harakatlarimiz indallosi bolalarni mudroqlikdan uyg'otishdir...

MEHR-U VAQTIMIZ SIZ UCHUN BISYOR

Ko'ngilga qanot bag'ishlovchi bu suhbatimiz 29-«Mehribonlik uyi»da biroz mahzunlik kashf etdi. Bu yerda 118 nafar bola tarbiyalanar ekan. 118 sog'inch, 118 bag'ri kemtiklig-u xomushlik. Bolalar «Osmonimiz nurafshon, quyoshimiz bor, non-oshimiz bor, yurtboshimiz bor», deb kuylab turganlarida, O'zbekiston Oliy Majlis Senati a'zosi, «Sog'lom avlod uchun» xayriya jam'armasi Jizzax viloyati filiali direktori Karimova Nodira Hazratovnani suhbatga tortaman:

-Nega bolalar buncha ko'-o'p? Otasi bo'lmasa, onasi bordir? Onasi bo'lmasa, amma-xolasi?

-Rost gap, Umidaxon, ularni qondosh-qarindoshlari olib ketishsa, yo'q demaymiz. Ammo ular bilan bu yerdagidek o'qib, sog'lom ulg'ayisharmikan, deb turamiz. Shart-sharoitlarni qarang: to'kin-tugal uy-



xonadonlardan a'lo. Yaqinda bolalarimiz yangi binoga ko'chishadi. Qolaversa, bu shirintoylarning tutingan o'z ota-onalari ham bor. Viloyatimizdagi o'ziga to'q ota-onalar ularni bayram-u tantana-



larda yo'qlab turishadi. Shaxsan mening ham bu yerda Olimjon degan o'g'lim bor...

Bir ko'ngil imorati, ming Makka ziyorati,

deganlari shu bo'lsa kerak-da! «Mehribonlik uyi» direktori Ra'no YUSUPOVA:

-Opa rost aytadilar. Bolalar taqdir taqozosi bilan bu yerga kelib qolsalar-da, xalqimiz ularni yakkalatib qo'ymaydi.



O'z bolamiz deb ularning kunlari quvnoq va sermazmun o'tishiga hissa qo'shishadi. Mana bugun ham shunday tantana: bolalarimizga o'zlariga zarur sovg'alarni tarqataymiz. Biriga oyoq kiyim, biriga ko'ylak, shim, tish pastasi, iroqi so-vun, shirin jo'-xori...

Bu tadbirdan oldin bolalar istagi inobatga olinib, kerakli buyumlar sotib olindi.

Shu kuni bolajonlardan «Tong yulduzi»ni o'qiysizlarmi, deb so'radik va baralla «O'qiymiz», degan javobni oldik. Chunki homiyilar ularni har yili o'z gazetalari obuna qilib qo'yishar ekan. Yodgora Yoqubova degan qizaloq esa bizni ko'rib behad baxtiyorligini aytdi:



«Aziz vaqtin-gizni aya-may kelganingiz uchun rahmat, xush kelibsiz!»

Nega vaqtimizni ayarkan-miz? Mehrimiz ham, aziz vaqtimiz ham siz uchun bisyor! Chunki sizlardan umidimiz katta! Ertangi yorug' kuni-

mizning aziz davomchilarisiz! O'z «Tong yulduzi»ngizga she'rlar yozing, maqolalar jo'nating. Orzu va niyatlaringizni respublika bolalari bilan o'rtoqlashing. Chunki «Tong yulduzi» - ong yulduzi! Uni barcha mamlakat bolalari o'qiydi.

Ammo, afsuski, viloyat boshliqlariga uchrasha olmadik. Shu kuni Xalq ta'limi vakillari bilan yig'ilish o'tkazilayotgan ekan. Qani endi biz ham shu yig'ilishga kirishga yo'l topa olsak! Ammo iloji bo'lmadi va niyatimizni viloyat ustozlariga gazeta orqali aytishga jazm qildik:

Sizlardan iltimosimiz, shogirdlaringiz o'z gazetasiga obuna bo'lish baxtidan bu yil benasib qolishmasin! Ularga tushuntiring, o'z bolaligingizni eslab, o'z gazetasini har bir bola o'qib borishi shart, deng! Bizlar o'qiganimiz uchun shunday o'qimishli, aziz insonlar bo'ldik, deng. Kitobga oshnolik gazetadan boshlanadi -deng!

Umida ABDUAZIMOVA.
(8-betga qarang).



GO'ZALLIK MALIKASI EDI

Mening Malika ismli bir dugonam o'tgan yili o'qishga hujjat topshirgan va talaba bo'lgan edi. Asli namanganlik bu qiz chin ma'noda go'zallik malikasi edi. Ammo hozir qornini ochib, kindigiga zirak taqqan, tor shim kiygan bu qizga hamma g'alati qaraydigan bo'ldi. Uni yo'lga solmoqchi bo'lib, «nega bunday kiyinadigan bo'lib qolding?» desam, «bu mening «stil»im», deya javob berdi. Eshitishimcha, boshqa millat qizlari bilan do'stlashib olib, ularga taqlid qiladigan bo'libdi.

Nega hozirgi paytga kelib o'zbek qizlari milliy ruhda kiyinishmayapti? Axir o'zimizning atlas-u adras matodan tikilgan ko'ylaklarni biz kiyasak, kim kiyadi?

Hattoki chet elliklar kelib bizdan atlas matolar, do'ppilarni o'z yurtlariga olib ketishayapti-ku. Nega biz buning qadriga yetmaymiz?

*Marjona TURSUNOVA, O'zMU
jurnalistika fakultetining
I bosqich talabasi.*

HAVAS QILAMAN

Men «Tong yulduzi» gazetasida chop etilayotgan tengdoshlarim ijodini muntazam kuzatib boraman. Undagi mazmunli she'rlarni daftaringa ko'chirib olaman. O'zim ham she'rlar mashq qilib turaman. Ular viloyatimizda chop etiladigan «Nurli kelajak» va «Gulg'uncha» bolalar nashrlarida chop etilgan. Sizlarga ham o'z ijodimdan namunalar yuboryapman.

ALAM

Ro'zivoy yalqov emas,
Birozgina dangasa.
Kitob o'qib, dars qilmas,
Maqsad – faqat o'ynasa.
Ona tili, fizikadan,
Javob bera olmadi.
Uzzu-kun u ko'chada,
Koptok tepib tolmadi.
Tunov kun yozma ishni,
Hamma bola do'ndirdi.
Ro'zivoy-chi, alamidan –
Ruchkasini sindirdi.

*Shahnoza RAIMOVA,
Farg'ona shahridagi 4-umumta'lim
maktabining 7- «V» sinf o'quvchisi.*

BIZNING MUSALLAM OPA



Ustoz – o'quvchilarga bosh, dardkash-u sirdosh!
Ustozlarni hech qachon unutmasak kerak... Mana bu yil maktabni bitirganimizga 25 yil to'libdi. Ustozlarimiz juda ko'p, lekin shulardan qaysi birlaridir biz uchun yaqin do'st va maslahatchi. Bizga sinf rahbarlik qilgan, o'z yo'limizni topib yashayotganligimizdan xursand Musallam Fayziyevaning uylariga dasta gullar ko'tarib kirib bordik. Opajonimiz o'sha-o'sha, o'zgarmabdilar, mehribon va dilkash. U kishi bilan uzoq suhbatlashdik. Har birimizning ismimiz, familiyamiz, qayerda yashashimiz va ishlashimiz ham xotiralarida yaxshi saqlab suhbatga kirishdilar. Musallam opa haqiqiy jonkuyar o'qituvchi edilar. Chunki sinfimizda kimyo faniga qiziqmaganlar bilan shunday tajribalar o'tkazardilarki, natijada bu fanga bog'liq fizika va matematika kabi aniq fanlarga ham qiziqib ketganmiz. O'qituvchilik nonini yeyish qanday mashaqqat ekanini hamma biladi. O'qituvchilarni e'zozlash va ularning sharafli va mashaqqatli ishlarida omadlar tilash burchimizdir. Bag'ringiz bolalar bilan to'liq, shogirdlar kamolidan ko'nglingiz ko'tarinki kayfiyatlar bilan shodon yashang, aziz ustozlar!

Nodira MUHAMMEDOVA.

«2006-yil – Homiylar va shifokorlar yili»

Dard degani kishiga bir yopishsa ketishi qiyin bo'larkan. Bir yilda ikki marotaba gaymorit kasalligi bilan og'riganimda, o'zim bunga amin bo'ldim. Rangimning bir holatda ekanligini ko'rgan qo'shnimiz Rahima opa meni ko'chada uchratib qolib, malakali shifokor Yusufjon Abdullayevning shifoxonasiga borishimni maslahat berdilar. Shu kuniyoq shifokorning qabuliga bordim. Yusufjon

Qo'yliq bozorining yonginasida o'zining shaxsiy shifoxonasi va dorixonasini ochib, bir necha yillardan buyon bemorlarni davolab kelayotgan ekan. Eshikdan kirishim bilanoq, istarasi issiq, barvasta kishi meni iliq qarshi oldi. Birinchi muolajadanoq o'zimni yaxshi his qila boshladim. Bir hafta ichida men butunlay sog'ayib ketdim. Ollohga

shukurlar bo'lsinki, hozir ahvolim juda ham yaxshi. Bunda albatta Yusufjon Abdullayevning beqiyos.

Bu shifoxonada davolanish uchun nafaqat shahardan, balki viloyatlardan ham bemorlar kelib shifo topishadi. Yusufjon aka boquvchisiz yoki nochor, kam ta'minlangan oilalarni, keksa qariyalarni bepul davolaydilar. Men ulardan: «Sizlarning ham o'zingizga yarasha sarf-xarajatingiz bo'lsa kerak, ko'pchilikni bepul davolasangiz, moddiy tomondan kim yordam beradi?» deb so'raganimda: «Savob ish – oltindan ham qimmat», deb javob berdilar. Yusuf akening saxiy va tantiliklari menga katta saboq bo'ldi. Ha, savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak...

*Zilola POZILOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining
I bosqich talabasi.*

HAR KIM, HAR KUNI...

Aka-singildan maktub

DO'STLASHMOQCHIMAN

Sarlavhamni o'qib, tengdoshlarim hayron bo'lishayotgandir. Ha, men turli viloyatlarda yashaydigan tengdoshlarim bilan yaqindan do'stlashishni, kelajakda ular bilan bordi-keldi qilishni istayman. O'zim haqimda yozadigan bo'lsam, men o'qiydigan maktab eng zamonaviy o'quv maskanlaridan biri sanaladi. Men 8-«V» sinf o'quvchisiman. Sinfodoshlarim maktab bo'yicha saralab, tanlab olingan eng iqtidorli va eng a'lochi o'quvchilar. Har qanday sinov va imtihonlardan tayyorgarliksiz o'tamiz. Maktabimiz Yaponiya elchixonasi tomonidan ajratilgan grant asosida ta'mirlandi. Sinfxonalarimiz zamonaviy o'quv qurollari va kompyuterlar bilan jihozlangan. Maktabimizda «Olmon tili» to'garagi mavjud bo'lib, unda faqat nemischa gaplashamiz. Zoologiya fani eng yaxshi ko'rganim. Oynayi jahon orqali namoyish etiladigan hayvonot olami ko'rsatuvini miriqib tomosha qilaman. Orzuim esa harbiy bo'lish. Mening egizak singillarim bor. Fotima va Zuhra 5-sinf o'quvchilari. Shunaqa gaplar. Iltimos, menga maktub yo'llang.

Sardorbek YO'LDOSHEV.

HOSIL BAYRAMIGA MARHAMAT!

Mana, yurtimizda kuz faslining so'nggi oyi hukm surmoqda. Dehqonlar-u bog'bonlar hosil yig'ish bilan ovora. G'arq pishgan meva-chevalar va poliz ekinlarini bozor rastalariga yetkazib berayotgan bobodehqonlardan shaharliklar mamnun bo'lishsa, ajabmas. Yaqinda Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yashaydigan qarindoshimiznikiga borgan edik. Katta ko'cha bo'ylab qator yarmarkani ko'rib, hayron qoldim. U yerda savdo ham yaxshi bo'larkan. Shaharliklar bu yerdan arzon va shirin mahsulotlarni xarid qilisharkan. Quyosh tafti ufurib turgan qovun-tarvuzlardan biz ham baham ko'rdik. Uyimizga qaytgach, uzum bog'imizga o'tib, mehnatimiz zoye ketmasligini, mashaqqatlarimizni qadrlaydigan iste'molchilar borligini yana-da chuqurroq his qildim.

*Fotima YO'LDOSHEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
25-maktab o'quvchilari.*



O'ZGALAR MEHRI SABAB


Qalin o'rmonda o'ziga bino qo'ygan bir maymog ayiq yasharkan. Uning uzun-uzun tirnoqlarini, jahli chiqqanda yanayam dahshatliroq ko'rinadigan katta-katta qoziq tishlarini ko'rgan odamning hushi boshidan uchishi tavin ekan. Ayiqpolvon kuchsiz, himoyasiz hayvonlarni qo'rqitib xafa qilar, hatto odamlarni ham tinch qo'ymas, uylariga so'rqisiz kirib, yeguliklarini olib qocharkan. Uni tartibga chaqirmoqchi bo'lisharkan-u, vajohatidan qo'rqisharkan.

Bir kuni ayiq o'rmonni aylanib yurib, daraxt kavagidan asal topib olibdi va mazza qilib



biror jo'yali fikr kelmadidi. Ertasi kuni podshohning huzuriga kelib, bunday taom tayyorlay olmasliklarini tan olishibdi. Ularning orasida munkillab qolgan kekxa bir oshpaz ham bor ekan. U podshoh qarshisida tiz cho'kib:

-Mana podshohi olam, taomingiz tayyor bo'ldi. deya ikki dona gaynatilgan tuxum va tuz uzatibdi.



Podshoh kekxa oshpazning aq-liga qoyil qolib, vadasiga binoman uni bo'yi barobar oltin bilan taqdirlabdi.

Toshkentdagi 249 - maktab o'quvchisi.

Aziza JALILOVA,

30

qirg'ish chizig'i

va ustoz o'rgatgan sehr-u sirning qudratini naqshlarga jo qilib, bir mo'jizakor surat chizibdi va devlarni o'sha xonaga taklif qilibdi. Birin-kekin xonaga kirib kelgan devlar o'z suratlarini ko'rib, yuraklari yoritib o'laveribdilar. Shundan so'ng devlar sardoriga:

-Xonangizga naqsh solib bitirdim, qani unga baho bering-chi? -debdi Bahodir.

Dev xonaga kirib qarasa, qal'a devorining o'rtasida o'zining xuddi tirikdek katta surati aks ettirilganmish. Uni ko'rib sardor ham til tortmay jon beribdi. Devlar qudratining siri - ularning suratida ekan. Shuning uchun ham ular o'z akslariga qarashga qo'rqisharkan. Bahodir shu taxlit devlar makoniga qiron kelirib, malikani qutqaribdi va qal'adagi barcha boyliklarni podshohning oyoqlari tagiga to'kibdi. Bahodirning aql-u-farosatiga, betakror naqqoshligi va jasoratiga qoyil qolgan shoh uni o'z mamlakatiga podshoh etib tayinlabdi. Va ular murod-u maqsadlariga yetishibdi.

Toshkent viloyati, Toshkent tumani.

Kamola ERGASH qizi,

7

ekan. Boy o'g'illarining yegani o'ldida, yemagani ketida ekan. Hech qanday ish qilishmas, hunar o'rganishmas, uzzu-kun urishganlari urishgan ekan. Xuddi o'gay akakalardak bir-birlarini ko'rishga ko'zlarini yo'q ekan. Kambag'alning o'g'illari esa juda inoq, mehnatkash, bir-birlariga mehribon ekanlar.



Bir kuni boyning o'g'illari bekorchilikdan zerkib, safarga chiqmoqchi bo'lishibdi. Otasi, men qarib qoldim, sizlar qaytganingizcha olamdan o'tib qolsam, kim meni tepkilab ko'madi, ketmanglar, deya harchand yalimmasin, ularni yo'ldan qaytara olmabdi. O'z so'zlarida

24

16

Qo'zichod, quyon, jo'ja...

Bo'ri tutdi ko'p o'lja, Botdilar qarib terga. Ikki do'st chiqib ovga,



Do'st bo'ldi unga tulki, Dumni go'yo supurgi. Yolg'onni u ko'p so'zlar, Bo'ri o'ljasin ko'zlar.

Do'st izlab ketdi shu kun, Zerikib qoldi bir kun, Fe'li juda tor edi. Laqma bo'ri bor edi,

BO'RI BO'LDI XO'P KULGI

8-«A» sinf o'quvchisi.

Bo'stonliq tumanidagi 18-o'rtta maktabning

Aziz RASHIDOV, Toshkent viloyati,

yig'layapman. Chunki shuncha subhatlarim naf bermay, yomon fe'l-atvorini o'zi bilan birga olib ketdi,-degan ekan.

15

uchun emas, balki u bechoraga achinganimdan

ajralganim sherigimdan -U badjahl javob beribdi: olim odam

Shunda oshpazningizga qiziq?! Yig'lashingiz sevinmay qutulganingizga odamdan qolib, -U badjahl, Shunda oshpazningizga qutulganingizga odamdan qolib, -U badjahl, Shunda oshpazningizga qutulganingizga odamdan qolib,



Bir olim, fozil odam yomon fe'l-atvorli, qo'pol tabiatli kishi bilan ancha vaqt subhatdosh bo'libdi. Bir kuni qo'pol tabiatli odam uzog safarga o'tlanibdi. Olim esa oradan hech qancha fursat o'tmay, toqatsizlanib yig'lay boshlabdi. Shunda odamlar taajjublanib so'rashibdi:

(Rivoyat)

NAFI TEGMAGAN SUHBAT

8

ni amlamay yutaman», debdi. Bu gapni eshitgan

tangiz menga yemish bo'lmasangiz, bolalaringiz- g'ibdi-da: «Mening qornim juda och. Agar biror-

sharkan. Bir kuni bo'ri hayvonlarni bir joyga yig' sharkan. Uni ko'rganda hayvonlar zir-zir titragan ekan. Mening qornim juda och. Agar biror-

Sizlarga ham aytib bermoqchiman. Sizlarga ham aytib bermoqchiman.



ZUKKO TULKIGA BALLI

23

ikkisi o'g'li, kambag'alning esa yetti o'g'li bor

odam bilan yonma-yon yashashar ekan. Boyning sudxo r bir boy kambag'al, halol va mehnatkash

HAYL TOLIQMA

nomli 25-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi.

Nodira CHORIYEVA, Qashqadaryo


viloyati, Qarshi tumanidagi Qori Niyoziy

gapirmaslikka so'z beribdi. mahkam bag'riga bosganicha Parizod boshiga qilich kelsa ham, endi hech qachon yolg'on gapirmaslikka so'z beribdi. qaytarib olib kelishibdi. Mushukchasini mushugini qiyinab, dumidan tortib yurishganini ko'rib qolibdi. Hech qanday gunohi bo'lmagan mushugiga rahmi kelib, onasiga voqeaning aslida qanday bo'lganini aytib beribdi. Oyisining ham ko'ngli yumshab, mushukni qaytarib olib kelishibdi. Mushukchasini mahkam bag'riga bosganicha Parizod boshiga qilich kelsa ham, endi hech qachon yolg'on gapirmaslikka so'z beribdi.

kelishibdi. Sirim ochilib qolmasin deb Parizod oyisiga qarshilik ko'rsatmabdi. Oradan bir necha kun o'tgach, Parizod qo'shni mahalla bolalari mushugini qiyinab, dumidan tortib yurishganini ko'rib qolibdi. Hech qanday gunohi bo'lmagan mushugiga rahmi kelib, onasiga voqeaning aslida qanday bo'lganini aytib beribdi. Oyisining ham ko'ngli yumshab, mushukni qaytarib olib kelishibdi. Mushukchasini mahkam bag'riga bosganicha Parizod boshiga qilich kelsa ham, endi hech qachon yolg'on gapirmaslikka so'z beribdi.

Ozon, tuz keltray deb,
Do'stimni to'ydiray deb,
Yugurib ketdi bo'ri,
Chunki ko'nglidir to'g'ri.

Kelb qarasa shu chog',
Huvillab yotardi bog',
Na o'lja bor, na tulki,
Bo'ldi bo'ri xo'p kulgi...



Shahnoza RIZAYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumani.

HASADGOY VAZIR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan
zamonda, Mistr degan tomonda go'zal bir shahar
bo'lgan ekan. Shaharga kattakon qasr zeb berib
turarkan. Bu qasrda shoh ikki go'zal qizi bilan
birga yasharkan. Adolati va rahmdil shoh
qizlarining odobli, tarbiyasi bo'yishlariga alohida
e'tibor beribdi. Qizlar o'n yetti yoshga
to'lishganida, shoh ularni vazirga topshirib, o'zi

17


kirib, buyumlarini birma-bir ko'zdan kechirish
kerak, degan fikrga kelib, tasdiqlab bo'yishgan
ekan. Maina esa bu qarordan bexabar qolibdi.
Tong saharda eshigining qatig' taqillashidan
cho'chib uyg'ongan Maina tashqarida turgan
Boyo'g'li, Hakka, Qaldirg'ochlarni ko'rib, hayron
qolibdi.

—Kecha majlisda hammaning uyini ko'zdan
kechirish kerak, degan xulosaga kelganimiz,
tomog' qirib so'z boshlabdi Boyo'g'li. —Uying
yaqin bo'lgani bois, senikidan boshladik. Maina
nima qilishini bilmay, ularni ichkariga boshlabdi.
Ne ko'z bilan ko'rishsin-ki, hammayog'i ivirib
yotgan uyada qushlar va hayvonlarning uylaridan
yo'qolgan buyumlar ham aralashib yotganimish.
Buni ko'rgan o'rmon qushlari barchaga o'g'ri
Maina ekanligini aytib chiqishibdi.
Barcha o'rmon qushlari va hayvonlari oldida
izza bo'lgani uchun uni Maina emas, Mayna deb
atay boshlashibdi. Shundan so'ng, boshqa
qushlardan ayro tushib, yolg'iz o'zi daraxtlarda
in qutib yashay boshlabdi.

Nodira QAHRAMON qizi, Toshkent
viloyati, Parkent tumani.

14

YETAKLAR YAKLIKKA ERTAKLAR —



Bugun ana shunday o'zingiz yozgan
ertaklardan saralab, o'zingizga kitobcha
qilib beryapmiz. Bu tuhfamiz lotin
alfbosidagi kitoblaringiz qatoridan
munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.
**Tong Yulduzi "2006-yil
kutubxonasi"**

Aziz bolajonlar, orangizda ertak
o'qishni yoqtirmaydiganlar topilmasa
kerak-a? Kitob o'qishni unchalik
xushlamaydiganlar ham ertak bo'lsa,
bajon-u dil o'qishadi, shundaymi? Chunki
ertaklar o'quvchini tasavvurlar olamiga,
yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi.
Ertaklarni nafaqat bolalar, balki biz
kattalar ham sevib o'qiyamiz, ular asosida
olingan multfilmlarni maroq bilan
tomosha qilamiz. Beg'ubor bolalik
damlarimizni yodga solishadi-da, ular.
Tahririyatimizga siz o'quvchilardan kelgan
ertaklarni berilib o'qib chiqishimiz ham
shundan.

qirg'ish chizig'i




hayvonlar sarosimaga tushib qolishibdi. Shunda
o'rta tulki chiqib:

—Bo'rivo'y, men bir joyni bilaman, sen u yerda
to'ygingecha go'sht yeyishing mumkin, - debdi.
Ochko'z bo'ri hech ikkilanmay tulkining ortidan
ergashibdi. Tulki uni avray-avray kishi oyog'i
yemagan sovuq bir joyga olib kelibdi.

—Bu yerda hech nima yo'q-ku, nima bilan
boqasan meni?-deb so'rab-
di bo'ri tishlarini sovuq-
dan takillatib.

—Hozir olib kelaman,
sen manavi g'orga
kirib turgin, -debdi
tulki va uzog' vaqt
yo'q bo'lib ketibdi.
Kech tushib, sovuq
zabotiga olibdi. Shun-
dagina bo'ri tulki ay-
yorlik qilib uni bu yer-
larga tashlab ketganini
tushunib yetibdi va
ketish yo'lini qidira

9



Shunda u:
Men malikaga atab qasr qurdirayapman. Sen
ana shu qasrga naqsh o'yib berasan, - debdi.
Bahodir bu taklifga jon-u dili bilan rozi bo'libdi
naqsh o'ygin-chi, -debdi devlar sardori. Bahodir
shunaqangi chiroyli naqsh o'yibdiki, buni
ko'rgan sardorning og'zi lang ochilib qolibdi.

9



boshlabdi.
Shunda bir dev
g'or ichidan
chiqib kelib:
—Bu yerga
nega kelding? -
deb so'rabdi.
—Men ustaman
javob beribdi Baho-
dir, — shu toshlarga
ajoyib naqsh o'yib,
devlar saroyini bezat-
sam, degandim...
—Chindan ham
usta bo'lsang, mana
shu qal'a devorlariga
naqsh o'yib beribdi Baho-
dir, — shu toshlarga
ajoyib naqsh o'yib,
devlar saroyini bezat-
sam, degandim...



sartflashar, qizlarini yer-u ko'kka ishonishmas
ekan. Shunday chiroyli qizning yomon bir odati
bo'lib, ko'p yolg'on gapirarkan.


Kunlarning birida Parizod kattakon
qimmatbaho ko'zani sindirib qo'yibdi va bunda
mushukchasini ayblabdi. Darg'azab bo'lgan
oyisi:

—Tog'atim toq bo'ldi, qachon qarasang, shu
mushuk bir ayb ish qiladi. Bu zararkunandani
uydan haydab yuboramiz, - debdi va boshqa
mahallaga olib borib, mushukchani adashtirib

22

52

turib olgan o'g'illarga oq fотиha berishdan
boshqa illoji qolmabdi.
Aka-uka yo'lga chiqishibdi, juda uzog' yo'l
yurib, kimsasiz bir qishloqqa kelib qolishibdi.
Biroz dam olib, tamaddi qilib olish
niyatida katta chinor tagiga
o'tirishibdi. Non, suv talashib,
urishib qolishibdi. Arazlashib,
ikkisi ikki tomonga ketib
qolibdi. Va shu
payt yo'ldan
vajohatli
ajdaho
ajdaho
chiqib
qolibdi.
Aka-
ukalarni
birin-ketin
boy
qo'yibdi. Boy
og'illarni to'qqiz
yil kutibdi. Kuta-
kuta charchab,
kuchdan qolibdi.



suveni to'kibdi, bo'lmasa zaharlanib o'lar edingiz,-deyishibdi. Podshoh nihoyatda xafa bo'libdi.«Qarchig'ayim menga yaxshilik qilgan ekan, men esa uni o'ldirdim», deya afsusnadomat chekibdi. Ammo, so'nggi pushaymon – o'zingga dushman, deganlaridek, endi kech bo'lgandi.

*Arab tilidan Madina SAIDMURODOVA
tarijmasi. Toshkent viloyati, Parkent tumani.*

BIR QOP TUZ

Qadimda bir mamlakat podshosi o'z yurtidagi barcha oshpazlarni bir yerga jamlab, quyidagicha topshiriq beribdi:

–Har biringizga bir qopdan tuz beramiz. Shu tuzning hammasini gozonga solib, menga bir taom tayyorlab beringlarki, o'sha taomga yana tuz sepib yey. Bu ishning uddasidan chiqqan odamga bo'yi barobar oltin beraman,-debbdi va bir kun muhlat beribdi.

Oshpazlar o'ziga tolishibdi, tunni bedor o'tkazishibdi. Lekin hech birining kallasiya

29



81


uzoq safarga ketibdi va bir oydan so'ng qaytibdi. U borgan joyda yuqumli kasal tarqalgan bo'lib, davosiz dard shohga ham yuqgan ekan. Uning dardiga shaharning manaman degan tabiblari ham davvo topa olishmabdi. O'limi yaqinligini bilgan shoh huzuriga vazirini chaqirtiribdi va qizlariga bor davlatini qoldirishini, ularning taqdirini esa vaziriga ishonishini, qizlarini faqat hunarmand yigitlarga turmushga berishini vasiyat qilib, olamdan o'tibdi. Qizlarning bunchalik ko'pmolu-

to'yuniccha yalabdi. Shu asnoda 2-3 kun o'tibdi. To'rtinchi kuni asalarilar podshosi unga bu asalni qishning ayozli kunlari uchun yig'ishayotganini ayitibdi. Hatto odamlarning gapini ham pisand qilmaydigan ayiqpolvon kichkinagina arining gapiga qulog solarmidi?...

Ertasi kuni u yana asal yalashga kelibdi. Buni ko'rgan arilar podshosi barcha arilarni yordamga chaqiribdi va ayiqpolvonni chaqib tashlashibdi...
Qo'shnisi ayiqpolvonning anhadan buyon ko'rinmay qolganini paydagan olimxon uni ko'rganini uyiga chiqibdi. Qarasa, bechora maymogniq butun badani shishib, og'riqning zo'ridan ingrab yotganmish. Olimxon uning yaralariga malham qo'yib, jomiga oro kiribdi. Bu voqeadan xabar topgan boshqa o'rmon hayvonlari ham ayiqpolvonni ko'rganini kelishibdi. Bundan ta'sirlanib kegan ayiq yomon odatlarini tashlashga, kattalarni hurmat qilishga, kichiklarni himoya qilishga vada beribdi.

*Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
M.Ulug'bek nomli maktab-internat
o'quvchisi.*

2



13



o'rmon tarixida bunday noma'qulchilik bo'lmagan ekan-da. Sher kechqurun hamma jonzotlarni to'plab, majlis qilishini ayitibdi. Maina odatiga ko'ra, majlisga ham ataylab kech kelibdi. U kelmasidan avval hayvonlar, har bir jonzotnig uyiga

Ularining orasida o'ziga oro berishni juda yoqtiradigan Maina nomli qush bor ekan. Maina patlarini tarab, oynaning yonidan sira nari ketmas ekan. O'z uyiga hecham mehmon chaqirmas, mehmondorchilikka ham ataylab kech borib, o'zini ko'z-ko'z qilarkan...
O'rmonda ko'ngilsiz voqealar ro'y beribdi. Qushlarning uyalaridan, hayvonlarning inlaridan turli buyumlar yo'qola boshlabdi. Bu holdan jamiki jonzot arz qilib, o'rmon shohi sherning oldiga kelishibdi. Ularni tinglab, sher ham sarosimaga tushib qolibdi. Chunki o'rmon qulchilik bo'lmagan ekan-da. Sher kechqurun hamma jonzotlarni to'plab, majlis qilishini ayitibdi. Maina odatiga ko'ra, majlisga ham ataylab kech kelibdi. U kelmasidan avval hayvonlar, har bir jonzotnig uyiga

qirgish chizig'i



aq-farosati hunarmand yigitiga uzatmoqchi edi. Afsuski, qizni devlar o'g'irlab ketishdi. Kimki malikani qutqarsa, shoh uni ana shu yigitga bermogchi. Juda ko'plab talabgorlar devlar bilan jang qilishga ketishgan, lekin na ulardan va na malikadan darak bor,-debbdi yo'lovchi. Bahodir bu gaplarni eshitib, otasining duosi, onasining vasiyati, ustozining nasihatini eslab, shohning huzuriga shoshibdi va unga ro'baro' bo'libdi.
–Maqsading ne?-so'rabdi shoh.
–Men malikani qutqarishga keldim,-javob beribdi Bahodir.
–Ne-ne pahlavonlar ketishdi, ammo birortasi devlar makonidan qaytishmadi, bo'tam,-debbdi shoh.

–Otamning duosi, onamning vasiyatini bajarish mening farzandlik qarzim. Shu qarzimni uzatmoqlik uchun Siz rozilik bering,-shohim,-debbdi Bahodir. Shoh uning maholi gaplarini tinglab, shijoatini ko'rib, unga qilich va galgon, safar uchun yemak berib, yo'lga kuzatib qo'yibdi. Bahodir tog'-u toshlar osha devlar makoniga yetib boribdi. Devlar hayqirig'idan qoyalar larzaga kela

5



26

olamdan o'tgan boyni ham izzat-ikrom bilan s o' n g g i yo'lga kuzatishibdi. Qissadan hissa shuki, boymi, kambag'almi, har kim farzandlarini halol lugma bilan boqishi

BIROVNING RAQQI

*Nigora DEHQONOVA, Farg'ona viloyati,
Oltiariq tumani, Hamza shahri.*



10

Qadimda so'lim qishloqlardan birida befarzand bir kampir yashagan ekan. Qishloq yosh-u qarisi «Inobat buvi» deb chaqirishlari unga juda hush yoqarkan.
Kunlarning birida bir qizaloqni o'z qaramog'iga olibdi. Kampirning Dilshod ismli jiyani bo'lib, u juda badfe'l

ENDI YOLG'ON GAPIRMAYMAN


*G. HAYDAROVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 1-son o'rtta ta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi.*

12

Qadimdamos, yaqin o'tgan zamonada Parizod ismli bir qizcha yashagan ekan. Oilaning yakka-yu yolg'iz erkatoysi bo'lmish qizaloq judayam chiroyli ekan. Ota-onasi topgan-tutganini unga

u og'ir kasallikka chalimib qolibdi. Tabiblar unga yordam bera olishmabdi. Vazir bu dard shoh vasiyatini bajarmaganligining jazosi ekanligini yaxshi bilarkan. Shunda u qo'riqchilariga shoh qizlarini topib kelishni buyuribdi. Saroyga qaytgan qizlardan kechirim so'rabdi-yu, olamdan o'tibdi.
Qizlar esa o'zlarini topgan yorlari bilan qasrda baxtli hayot kechira boshlashibdi.


davlati bo'lib qolishi vazirga yoqmad. Oraga shayton oraladi. Bu orada qizlarga o'ziga yurtlardan sovcilar kela boshladi. Bu esa vazirga juda qo'ldiribdi va qizlarni boshqa yurtdagi aka-ukalarga uzatib yuboribdi. Shoh qizlari ko'z yosh bilan ota yurtlarini tark etishibdi. To'ydan so'ng kuyovlar shikorga ketishibdi. Oradan bir oy, ikki oy, bir yil o'tibdi hanki, yigitlardan darak bo'lmabdi. Saroy ahli qizlarni saroydan quvib solishibdi. Qizlar quruq qo'ldan yurtlariga qaytishibdi. Bundan xabar topgan vazir qasr qo'riqlariga ularni o'rmonga



19

murud-u maqsadiga yetibdi. Tirikligida biror mara xolasining holidan xabar olmay, o'lgandan keyin meros talashgan Dilshodning taqdiri esa aynanchi kechibdi. Tunda to'satdan yong'in chiqib, beoqibat jiyanni yonayotgan uy o'z domiga tortib ketibdi. Qissadan hissa shuki, biroving haqqi hech vaqt boshqaga buyumaydi.

Shohida UMMATOVA, Andijon viloyati, Balqchi tumanidagi 44-o'rta maktabning 7-«B» sinfi o'quvchisi.



12

MAINANING MAYNA BO'LGANI HAQIDA

Qalin o'rmonda parranda-yu darrandalalar ahli va inoq kun kechirisharkan. Bir-birlarinikiga mehmonga borishar, turli bayramlar uyushtirib, o'zlarini xursand qilib yurisharkan.

qirg'ish chizig'i

va badihl ekan. Xolasining farzand asrab olganini eshitib, quruq qolamanni deb, har kuni janjal qilibdi...

Lekin bunga chidagan asrandi qiz Hilola buvisining ayganlaridan chiqmas, unga shirin-shirin ovqatlar pishirib berar, uy yumushlarini astoydil bajararkan. Bir kuni Inobat buvi qatig og'rib qolibdi. Bundan qatig tashvishga tushgan Hilola buvisini ko'rsatmagan tabii qolmabdi. Ammo shuncha urinishlariga qaramay dardning qo'li baland kelib, Inobat buvi vafot etibdi. Bu xabarni eshitib Dilshod tezda yetib kelibdi. U hamon meros haqida o'ylar, kampingning uy-joyi Hilolaga qolib ketishidan juda cho'chir ekan-da. Inobat buvisining barcha marakalari o'lgach, Dilshod Hilolani uydan quvib yuboribdi. U-joyi o'zining nomiga rasmiylashtiribdi. Ko'chada qolgan Hilola zor-zor yig'labdi. Inobat buvisining Minavvarxon ismi yaqin dugonasi bo'lgan ekan. Hilolaning ko'chada qolganini eshitib, uni o'z qaramog'iga olibdi. Balog'atga yetgach, turmushga uzatibdi. Hilola endi boy, badavlat xonadonning erka keliniga aylanibdi va

11

tashlab kelishni buyuribdi. Qo'riqlilar uning ayganini bajarishibdi. Qizlar qop-qorong'u o'rmonda yig'lab-siqtab qolaverishibdi... Shu payt ularning ko'zi olistan yaltirab ko'rinayotgan nurga tushibdi va o'sha tomonga yo'ldiribdi. U yerda bir kulba bo'lib, unda o'rinchi yigitlar yashasharkan. Qizlar kulbaning eshigini taqillatishibdi. Ichkaridan chiqqan o'rinchi yigitlardan biri ularni kulbaga taklif qilibdi.

—Shu yerda sizlar bilan yashasak maylimi?— so'rabdi qizlarning kattasi.

—Mayli-ku-ya, lekin bu yer juda tor-da, deyishibdi o'rinchi yigitlar hijolat bo'lib.

—Uyi yo'q bechoralarga tor joy ham bo'laveradi,— deyishibdi qizlar va shu yerda yashab qolishibdi. Yigitlar o'tinga ketishganda, qizlar kir yuvishar, ovqat pishirib, supurib-sidirisharkan. Bu yigitlarga ham yoqib tushibdi. Bora-bora ular bir-birlarini yoqtirib qolishibdi... Endi gapni vazirdan eshitaylik:

Behisob boylikka osongina erishgan vazir ays-h-u ishratda yashay boshladi. Ammo bir kuni

20

28

piyolasini to'ldirib, labiga yaqinlashirgan ekan, qarchig'ay bu safar ham piyolani to'ntarib yuboribdi. Podshoh achchiqlanib, qarchig'ayni toshga urib o'ldiribdi. Shu payt «ko'proq suv topaylik», deya buloqning og'ziga borgan xizmatkorlari suv olmay qaytib kelibdilar va podshohga:

—Bu suvni ichib bo'lmaydi, sababi, ilon zahri suvga to'kibdi. Yaxshiyamki, qarchig'ay



0 SURATIDAN QO'RQADIGAN DEV

O'lgan zamonda bir bog'bon bo'lgan ekan. U yetti yil deganda o'g'li ko'ribdi, lekin bola tug'ilgan zahoti onasi olamdan o'tibdi. Bog'bon o'g'liga Bahodir deb ism qo'yibdi.



Bola ismiga monand jasur va mard bo'lib voyaga yetib boshlabdi. Kamondan otish, qilich bilan jang qilish, dov-daraxtga ishlov berish, mevalardan mo'lj hosil olish sirlarini puxta o'rganibdi.

Gavdali va baquvvat bo'lgani uchun kurashlarda uni hech kim yerdan ko'tara olmas, kuragini yerga tekkiza olmas ekan. Yigitlarning ba'zilari hasad, ba'zilari

3

havas bilan qarashar, qizlar esa unga turmushga chiqishni orzu qilishar ekan.

Yigit kishiga yetmish hunar ham ozligini yaxshi bilgan usta bog'bon o'g'lini bir ganchkor ustaga shogirdlikka beribdi va u toshga naqsh o'yishni o'rgana boshlabdi. Bir kuni ustoz Bahodirga:

—Bolam, naqsh shunday qudratli sirki, uning sehri shayton-u jodugarni shol-u ko'r qiladi, devlarning ajdod-u avlodiga qiron keltiradi. Sen ana shu sehri bilib ol,—debdi.

U barcha hunarlarni batafsil o'rgangach, otasi: «Bolam, endi yurtning koriga yara, dardiga malham bo'lg'in. Bu tilak onang qilgan vasiyatdir», deya oq fотиha beribdi. Bahodir otasi bilan xayrlashib, dunyo kevgani yo'lga chiqibdi. Uzoq yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, hammayoq g'ala-g'ovur, odamlari sertashvish bir mamlakatga yetib boribdi. U bir yo'llovchini to'xtatib, yurt nega notinchligini so'rabdi.

Shohimizning husnda tengi yo'q bir qizi bor. Unga ne-ne shoh-u shahzodalardan sovcilar kelishdi. Shohimiz esa pizini sofdil, lo'li gul,

4


kerak. Shundagina ular imon-e'tiqodli, mehr-oqibati bo'lib kamol topishadi.

Sitora KAMOLOVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi Qori Niyoziy nomli 25-maktabning 6-«A» sinfi o'quvchisi.

PODSHOH BILAN QARCHIG'AY

Bir podshoh ovga chiqibdi. Qarchig'ayni ovning ketidan yuborib, o'zi orqasidan boribdi. Qarchig'ay o'ljastiga bir zumda yetib olibdi. Podshoh ancha paytgacha ov qilib, tashlabdilar suv yig'ib boshladi. Bir tog'ning yonidan tomchibdi suv oqib turgan ekan. Podshoh qurumdan piyolasini olib, suvga tushiribdi. Piyola to'ldandan keyin ichay deb og'ziga qilib boribdi. Shu payt qarchig'ay birdan qanotini suvni to'kib yuboribdi. Podshoh piyolasini yana tutib, to'ldiribdi. To'ldiribdi bilan kutib, endi ichay deganda, qarchig'ay ay qanoti bilan yana yuboribdi. Podshoh uchunchi marotaba

72



Yurtimizda xayr-ehson, saxovat, savob ishlar qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan kishilar behisob. O'ng qo'ling berganini chap qo'ling sezmasin, desalar ham, savob qilgan kishilar haqida takror-takror yozgim kelaveradi. Termizlik Komiljon Hasanov ishlar hadisini olganlardan ekan.

90-yillarda viloyatda sport jihozlariga ta'lab katta edi. Buni his qilgan Komiljon aka Termiz miljon aka Termiz jihozlari do'konidagi sport anjomlari olinayotgan foydani savob ishlarga sarflay boshladi.

Ma'lumki, sportni rivojlantirishda muvaffaqiyatning 50 foizi sport anjomlari, sport kiyimlariga bog'liq bo'ladi. Tennis raketkasi yoki futbol to'pi bo'lgan, bashang sport kiyimi kiygan bola



Unga o'rtoqlari havas qiladi. Xuddi shu intilish, havas bolalarni «Dinamo» do'koniga yetaklab kelsa, ajab emas.

Xalq ta'limi muassasalariga, nogironlarga, «Mehribonlik uylari»ga yordam qilayotgan do'kondor o'tgan yili 30 nafar kam ta'minlangan oila farzandlariga sport kiyim-kechaklari sovg'a qildi.

Xotira va qadrlash kunida 50ta xonadonga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatdi.

–Savobni avvalo Olloh inson qalbiga solishi kerak, deb o'ylayman. Shukurlarkim, shunday ezgu amallar qilish menga ham nasib etayapti, –deydi Komiljon Hasanov.

–Do'konimizni Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishlab 2002-yilda ochdik. Mustaqillik tufayli xususiy do'konimizga musharraf bo'ldik. 1-iyun –Xalqaro Bolalarni himoya qilish kunida turnir tashkil etib, sovrin ta'sis etdik. Dastlab nogironlar va ko'zi ojizlar jamiyatlariga yordam qilgan bo'lsak, 2003-yildan maktablarga homiylik qilishga kirishdik.




Xalq xo'jaligi institutida o'qib yurgan kezarim edi. Tovarshunoslik fanidan voleybol to'pining basketbol to'pidan farqini so'rashigandi. Javob berolmaganman. Shu-shu, sport sohasiga qiziqib ketdim.

Boysun tumanidagi 6-maktabda o'qigan paytlarimda jismoniy tarbiya darslari sinfda o'tilar, o'qituvchi ham oddiy kiyimda, fikrlari tor bo'lardi. Aslida-ku, uning sinfda dars o'tishiga sira haqqi yo'q edi. Hozirda ahvol mutlaqo o'zgargan. Bolalar sportning istagan turlari bilan shug'ullanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Viloyatimiz maktab o'quvchilari sport musobaqalarida respublikada, chet ellarda ham g'olib bo'lib kelishganida mening ham kamtarona hissam borligidan cheksiz quvonaman.

Katta o'g'lim Zahiriddin karatega qiziqadi, kichigi Faxriddin «Hamkor» futbol klubida shug'ullanyapti. Ularga ham savob ishlar qilish mag'zini tushuntiraman. Bunday ishlarimizni chin ko'ngildan qilyapmiz. Har tong ota-onamning duolari bilan ish boshlayman. Keyingi paytlarda bolalarning sportga qiziqishi juda ortib borayotganidan xursandman. Ertamiz bugundan-da farovon bo'lib ketishiga ishonchim komil.

Komiljon akalar kabi saxovatli insonlar bor ekan, biz ham bunga chin dildan ishonamiz.

Zamira TO'LAGANOVA.



Kattalar, e'tibor bering!

Biz yashayotgan qishloq go'zal Farg'ona vodiysining qoq o'rtasida joylashgan. Ismijismiga monand –Yangiyo'l. Bobomning aytishiga qaraganda, qishloq'imiz qurilishida Zarkent, Zirrillama, To'qiboy, Jar qishloq, Ahshak, Tosh qishloq, Sandiqchi kabi qishloqlardan kelgan kishilar faol qatnashib, shu yerda uy-joy qurib, yashab qolgan ekanlar.

Hozirgi kunda Yangiyo'l qishlog'i Toshloq tumanidagi eng shinam manzilgohlardan biridir. Qishlog'imizdagi o'rta maktab ham 1930-yillarda tashkil topgan bo'lib, bu tumanidagi ilk maktab hisob-

langan. Hozirgi kunda bu maktab buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy nomi bilan ataladi. Maktabimizning sobiq o'quvchilari orasida ona vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qilgan va qilayotgan hozirda mashhur bo'lib ketgan olimlar borligidan faxrlanaman. Biologiya fanlari nomzodi Mamadali aka Nazarov shular jumlasidan bo'lib, hozirgi kunda Farg'ona Davlat universiteti kimyo, biologiya fakultetida ishlab kelmoqda. Ammo, kezi kelganda shuni aytib o'tishim kerak, biz qishloq bolalari yil – o'n ikki oy qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilinamiz. Bunday paytlarda juda ham o'ksib ketaman. Chunki qo'shnilarimiz Bobur, Botir, Nargiza, Halima, Matlubalar shahardagi maktabda ta'lim oladilar. Ular paxtaga yoki qishloq xo'jalik ishlariga bormaydilar. Nima uchun bizlarni

olib borishadi, degan savolga hech ham javob topolmayman. Ana shunday paytlarda xayol surib, o'ylanib qolaman va dilimdan so'zlay boshlayman. Qani endi qo'limda sehrli nay bo'lsa-yu, bir chalib, barcha qishloq maktablaridagi o'quvchilarni qishloq xo'jalik ishlaridan batamom ozod qilsam! Shaxsiy boylik orttirish maqsadida ish olib borayotgan ayrim tadbirkorlarni chindan ishlashga undagan bo'lardim. Chunki ular faqatgina shaxsiy boylik orttirishni o'ylab qolishyapti. Ishchilarga kamroq to'lash uchun qishloq aholisini emas, bal-

ki boshqa joylardan kelganlarni ishlatishyapti. Qani endi sehrgar bo'lsam-u, qishloq maktablaridagi o'qituvchilar va ustozlar uchun bepul issiq ovqatlar tashkil qilib qo'ysam. Sinflardagi o'quvchilar soni 20-25tadan ortmasa va ularning o'zlashtirishlari doimo «4», «5» baholarga teng bo'lsa. Chunki qishloq sharoitida yashayotgan va bilim olayotgan bolalarning barchasi ham har kuni shirin choy, sariyog', tuxum yoki go'sht iste'mol qilib maktabga keladi, deb aytolmayman. Axir o'sha uchar tadbirkorlar sabab, ayrim ota-onalarimiz ishsiz, ular ishsiz bo'lgandan keyin qayerdan maosh olishadi? Qani endi sehrgar bo'lib qolsam!..

AGAR SEHRGAR BO'LIB QOLSAM...

Sardor UMAROV,
Toshloq tumanidagi
11-maktab o'quvchisi.

BAXT

Kimlardir aytadi: – Baxt – katta boylik,
Kimlardir deydi: – Baxt bu – salomatlik.
Asli yer yuzida yurganimiz – baxt.
Sof havodan nafas olganimiz – baxt.

Baxt emasmi deyman tirikligimiz,
Odamlar dardiga sherikligimiz.
Yaxshilarga doim kerakligimiz,
To'yib yig'lashimiz, kulganimiz – baxt.

Quyosh boshimizdan nur sochib tursa,
Onamiz bizlarga parvona bo'lsa.
Bog'imiz bexazon gullashga kirsam,
Ularga shod boqib turganimiz baxt.

Vatanning koriga asqotib qolsak,
Kattalar ishini qo'lidan olsak.
Tinchlik, baxt, hurriyat kuyini chalsak,
Shu Vatanga farzand bo'lganimiz – baxt.

Nigora NORMATOVA, Andijon viloyati,
Buloqboshi tumanidagi
13-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

KICKINTOYLARGA BOY MASKAN



Maktabgacha ta'lim muassasalarimizda yozgi sog'lomlashtirish oylarida bolalar sog'ligini saqlash va mustahkamlashga yana-da jiddiyroq e'tibor qilgan holda ko'proq ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazypmiz. Barcha bog'chalarda «Sog'lomjon - polvonjon» sport musobaqalari uyushtirildi. Unda 2-maktabgacha ta'lim muassasasi tumanda

1-o'rinni olib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

19-bog'cha tarbiyalanuvchilari esa shaxmat bo'yicha o'tkaziladigan Respublika turniriga yo'ldildilar.

X. ISROILOVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumani Xalq ta'limi bo'limi uslubchisi.

Men Feruza Oripova Jizzax viloyatidagi 29- «Mehribonlik uyi»ning 6-kichik guruh bolalari tarbiyachisiman. Bolalarni juda yaxshi ko'raman. Har bir mashg'ulotni qiziqarli qilib olib borishga harakat qilaman. Har bir bayramni ko'tarinki ruhda o'tkazamiz. Mashg'ulotlarda va tadbirlarda guruhdagi tarbiyalanuvchilardan Aziza, Jamshid, Muhiddin, Kristina, Anvar, Arabullo, Rahimjon singari bolalar faol ishtirok etishadi. Ularni doimo rag'batlantirib boramiz. Bunda «Mehribonlik uyi» rahbari Yusupova Ra'no Subxonovnaning hissalarini beqiyosdir.

Men quyidagi she'rimni «Mehribonlik uyi»ning shirintoy qizalog'i Azizaxon Sharipovanning 9 yoshga to'lganligi munosabati bilan unga bag'ishlab yozdim:

AZIZAXONGA

Chiroylisan misli qo'g'irchoq,
Taqib qo'yay o'zim ko'zmunchoq.
Seni ko'ray doim shod-quvnoq,
Azizam, baxtinga doim bor bo'lg'in,
Erkam, elga dast-u kor bo'lg'in.

Sen kulganda dunyo kuladi,
Gullar senga o'rtoq bo'ladi.
Seni ko'rib ko'nglim to'ladi,
Azizam, baxtinga doim bor bo'lg'in,
Erkam, elga dast-u kor bo'lg'in.

O'sib bir kun gul qiz bo'larsan,
Ko'z yondirgich gulyuz bo'larsan.
Feruzani eslab yurarsan,
Azizam, baxtinga doim bor bo'lg'in,
Erkam, elga dast-u kor bo'lg'in.

Feruza ORIPOVA.



Ne'mat HAYRAT

VATAN

G'amlarimni qaritdi ishqing,
G'ussalarim aritdi ishqing,
Mudom yo'lim yoritdi ishqing,
Taqdirimga yog'dusan, Vatan!

Moziylardan bir sas keldi-chin,
Erksiragan nafas keldi-chin,
Hur jamoling abas keldi-chin,
Bir durdona kulgusan, Vatan!

Mard maydonda bilinar xalq bu,
Ilinganga ilinar xalq bu,
Tinchlik qadrin-chin bilar xalq bu,
Hurriyatga ko'zgusan, Vatan!

Ko'pdir so'zning qadrini bilgan,
E'tiqod-la yashnagan, kulgan,
Har juft ko'zga, har bir ko'ngilga,
Eng yarashiq sezgisin, Vatan!

Qordek yog'ar rizq-u ro'zlaring,
Yuz ayyomga teng Navro'zlaring,
Mudom yorug' oftob yuzlaring,
Tomirdagi sevgisan, Vatan!

Kecha emas, bugunmas, azal,
Istiqlol deb taralgan g'azal,
Dunyo uzra jaranglar go'zal,
Niyatimdek ezgusan, Vatan!



BUVIM TONGINING YULDUZI



Qarisi bor uying parisi bor, deyishadi dono xalqimiz. Haqiqatan ham qay bir xonadonda buvi-jon-u bobojonlar bo'lsa, ana shu oilada fayz-u barokat bo'ladi. Orasta hovlilaridan rayhon isi ufurib turadi. Shu oila farzandlarining ta'lim-tarbiyasida ham keksalarimizning o'rni beqiyos.

Men ham ana shunday baxtli nabiralardan biriman. Buvijonim Halima ayani mahallamizda hamma hurmat qiladi. Nasihat-u maslahatlarini hech kimdan ayamaydigan buvijonim bizning tarbiyamizga ham jiddiy e'tibor qaratadilar. Maktabdagi o'qishimizni muntazam kuzatib, uy vazifalarni tayyorlashga ko'maklashadilar. Bo'sh vaqtimizda muzey, istirohat bog'i, hayvonot bog'i, teatr va konsertlarga olib boradilar. O'zlari o'qimishli, ziyoli bo'lganliklari uchun bizni ham turli gazeta va jurnallarga obuna qildiradilar. Dugonalarim Maftuna, Yulduz, Sadoqatlar bilan to'planishib, gazetalarni, buvijonim bilan birgalikda, ayniqsa, «Tong yulduzi»ni sevib mutolaa qilamiz.

Ustozimiz Gulnora opa Kuryazevaning ochiq darslarda «Tong yulduzi»dan foydalanishlari ham bejiz emas. Chunki u juda qiziqarli-da. Shuning uchun bu yil ham birinchilardan bo'lib o'z gazetamizga obuna bo'ldik. Bunda buvijonimning hissasi katta. Buvim, bu gazeta mening «Tong yulduzi»m, deyidilar. Endi yil davomida uni miriqib o'qiyamiz.

Go'zalxon OZODOVA,
Xorazm viloyati, Pitnak shahridagi
10-maktabning 4- «B» sinf o'quvchisi.

O'ZBEGIM FARZANDIMAN

Yurtini obod qilgan,
Xalqini ozod qilgan,
Mustaqil diyorim bor,
Qo'ynida yashnar bahor,
O'zbekim farzandiman.

O'zbekimni tanitgan,
O'zligimni tanitgan.
Tillari burro-burro,
So'zligimni tanitgan,
O'zbekim farzandiman.

Mehri quyoshday, oyday,
Qizlari Barchinoyday.
Farzandlari bamisli,
Navqiron, uchqur toyday,
O'zbekim farzandiman.



Navoiy bobosi bor,
Qoshg'ariy donosi bor,
O'z fe'liga yarasha,
Qalbi hamisha bahor,
O'zbekim farzandiman.

Nilufar MO'MINOVA,
Toshkent shahar, M.Ulug'bek
tumanidagi «Kompyuter
texnologiyalari» akademik
litseyining II bosqich talabasi.

XIRMONGA BARAKA

Haqiqatan ham xirmonga baraka kirishi uchun biz o'quvchilar oz bo'lsa-da, o'z hissamizni qo'shyapmiz. Maktabdagi o'qish nima bo'layapti, deysizmi? Maktab ham, o'qish ham o'z vaqtida bo'lyapti. Birinchi chorakni yaxshi baholarga tugatib, chanoqda qolgan paxtalarni teryapmiz. Terilgan paxtalarimizning haqini ham o'z vaqtida olib, o'zimizga kerakli o'quv qurollarini xarid qilyapmiz. Obuna mavsumi boshlangani uchun o'nta o'quvchi bir bo'lib, o'zimizga mo'ljallangan gazeta va jurnallarga obuna bo'lmoqchimiz.

Ulug'bek OLLOMURODOV,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanida joylashgan
18-ixtisoslashgan maktab-
internatining 8-sinf o'quvchisi.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jam'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston
matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16778

Buyurtma N: J 3001

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Muharrama

PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10